ISSN 2181-3187

# MUQUMIY G‘AZALI MUHAMMADJON MIRZAEV MUSIQASI.“ULKUNJANON” ASHULASI MUSIQIY TAHLILI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
“Ijtimoiy Gumanitar fanlar va san’at
fakulteti “Musiqa ta’lim” yo‘nalishi
1-bosqich 102-guruh talabasi
**Soibjonova Nasibaxon Azizbek qizi.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muqumiy g‘azali va Muhammadjon Mirzayev tomonidan bastalangan “Ulkun janona” qo‘shig‘ining musiqiy hamda badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Muqumiy ijodining o‘ziga xos lirizmi, she’riy san’atlari va g‘azal janridagi uslubi haqida so‘z yuritilib, ushbu she’rning qo‘shiq sifatida ommalashish sabablari yoritiladi. Shuningdek, Muhammadjon Mirzayev musiqasining ohangdorligi, kuy tuzilishi va qo‘shiqning ijro uslubi tahlil qilinib, milliy musiqamizdagi o‘rni baholanadi. Maqola adabiyot va musiqaning o‘zaro uyg‘unligi haqida ilmiy-nazariy xulosalar berishga qaratilgan.

**Kalit so‘z:** g‘azal, ulkunjanon, shoir maqom, madaniy asar, meros, ashula.

**Аннотация:** В статье анализируются музыкально-художественные аспекты песни “Улкун джанона” авторства Мукумия Газали и Мухаммаджона Мирзоева. Обсуждается уникальный лиризм, поэтическое искусство и стиль творчества Мукуми в жанре газели, а также объясняются причины популярности этого стихотворения как песни. Также будут проанализированы мелодика, мелодическая структура и манера исполнения музыки Мухаммаджона Мирзаева, а также оценено ее место в нашей национальной музыке. Целью статьи является предоставление научно-теоретических выводов о взаимной гармонии литературы и музыки.

**Ключевые слова:** газель, эпическая поэма, поэтический макам, культурное творчество, наследие, песня.

**Annotation:** This article analyzes the musical and artistic aspects of the song "Ulkun janona" composed by Mukumiy and Muhammadjon Mirzayev. The unique lyricism, poetic arts, and style of Mukumiy's work in the ghazal genre arediscussed, and the reasons for the popularity of this poem as a song arehighlighted. The melody, melodic structure, and performance style of Muhammadjon Mirzayev's music are alsoanalyzed, and its place in our national music is assessed. The article aims to provide scientific and theoretical conclusions about the harmony of literature and music.

**Keywords:** ghazal, epic poem, poetic maqam, cultural work, heritage, song.

**Kirish:** 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid daavlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta’kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi. Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida “Yoshlar parlamenti” tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi.

ISSN 2181-3187

**Asosiy qism:** Milliy adabiyotimiz tarixida XlX asr oxiri XX asr boshlarida Qoqon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar merosi alohida orin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxoja Muqumiy asarlari har doim mutahassislari iqqat markazida bolgan.

Muqumiy 1850 1903 yillarda yashab otgan. U adabiyotning yirik vakillaridan biri istedodli shoir va ma'rifarparvar mutafakkir. U Farg‘ona vodiysida aynan Qoqon shaxrida tug‘ulgan. Muqumiyning "Ulkunjanon" g‘azali mashxur bo‘lib, unda shoir o‘z sevgilisi yoki mashuqasiga murojat qilib, uning go‘zalligini madh etadi. Bu g‘azalda Muqumiy o‘ziga xos xalqona ohang va tasvirlar bilan ishqiy kechinmalarini ifodalaydi. Shoirning mahorati dhundaki u ofdiy sevgi izhorini ham ohangdor tasirchang va badiiy ifoda bilan tasvirlaydi. [1]

Ushbu g‘azalni musiqalashtirgan bastakor Muhammadjon Mirzaev.U 1913-yil sozandalar oilasida tug‘ulgan.U dastlab T. Jalilov, J.Sultonov, kabi ustozlardan musiqa sirlarini o‘rgangan.1953-yil Toshkent Davlat konservatoriyasini tamomlagan.O‘zbek Davlat filarmoniyasining xalq cholg‘ulari orkestorida sozanda.O‘zbek ashula va raqs ansamblida,keyinchalik “ Shodlik” va “Lazgi” ansambllarida musiqa raxbari bo‘lib faoliyat yuritgan. Qashqar rubobining mohir ijrochisi sifatida, uning ommaviylashuvi va repertuarining boyishiga katta xissa qo‘shgan.[2]

**Xulosa**: Muqumiy g‘azali va Muhammadjon Mirzayev bastalagan “Ulkun janona” qo‘shig‘i o‘zbek adabiyoti va musiqasi uyg‘unligining yorqin namunalaridan biridir. Muqumiy she’riyatining nafis badiiyati, insoniy tuyg‘ularni teran ifodalashi ushbu g‘azalning qo‘shiq sifatida ham uzoq yillar davomida xalq orasida mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Muhammadjon Mirzayev musiqasi esa she’r ruhini chuqur anglab, unga mos ohang va kuy yaratish orqali asarga yangicha hayot baxsh etgan. Mazkur qo‘shiq xalqimizning musiqiy merosi va milliy an’analarini aks ettirib,

[1] R. Vohidov. H. Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent-2006
[2] https://uz.wikipedia.org

ISSN 2181-3187

zamonaviy ijrochilikda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois, adabiyot va musiqa uyg'unligini o'rganish, an'anaviy va zamonaviy san'atni birlashtirish milliy madaniyatimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


**1.** [1] https://uz.wikipedia.org

**2.** D. Abdullaeva. O'zbek adabiyoti yilnomasi 2018-yil

**3.** R. Vohidov. H. Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006.